

Date: 25th June-2025

BOBUR – MURAKKAB SHAXSIYATLI SHAXS

Raximov Faxriddin

Turon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zbek adabiyoti tarixi rivojini Zahiriddin Muhammad Bobur ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. XV asr oxiri va XVI asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi — buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda va Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi poetikasi o'nlab ilmiy ishlarga mavzu bo'lgan. Adabiyotshunos va tarixchilarning tadqiqotlari, salaflarining ma'lumotlari, tazkiralar va muallifning asarlari o'rganib chiqilsa, Bobur bolaligidan juda zukko, o'qituvchi va murabbiylarning har bir nasihatini tezda egallab olganini ko'rish mumkin. Asosiy ustozlari Xoja Mavlono Qozi bo'lgan. Bobur ayniqsa tarix, harbiy ilm, musiqa va adabiyotga kuchli qiziqish bildirgan. Bo'sh vaqtlarida esa harbiy mashqlar va ov qilish sirlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan.

Annotation. The development of the history of Uzbek literature cannot be imagined without the work of Zahiriddin Muhammad Babur. The poetics of the work of Zahiriddin Muhammad Babur, a major figure in Uzbek classical literature of the late 15th and 16th centuries - a great poet, historian, geographer, statesman, talented commander and founder of the Babur dynasty - has been the subject of dozens of scientific works. If we study the research of literary critics and historians, the information of his predecessors, tazkiras and the works of the author, we can see that Babur was very intelligent from childhood, quickly absorbing every piece of advice from teachers and mentors. His main teacher was Khoja Mavlano Qazi. Babur was especially interested in history, military science, music and literature. In his free time, he paid special attention to military exercises and studying the secrets of hunting.

Kalit sozlar. Poetika, tasavvuf, so'fiy, Mubayyin, g'azal, Boburnoma, Xatti Boburiy, tarixchi, shoir.

Key words. Poetic, Sufism, Sufi, Mubayyin, gazal, Baburnama, Khatti Baburi, historian, poet.

Mirzo Boburning xalqchil hukmdor bo'lib ulg'ayishi, navkarlar bilan hamdardligi va barcha qiyinchilik hamda quvonchlarni birga boshdan kechirishi uning bobokaloniga o'xshash fazilatlaridan biri edi. Uning to'rt o'g'li va uch qizi bo'lib, ularning uchtasi — Muhammad Humoyun, Komron Mirzo va Gulbadanbegim shoirlik va adabiyot sohasida otasidan meros olgan. Aslida, ilm-fan, adabiyot, madaniyatga homiylik ko'rsatish ko'pchilik temuriyzodalarga xos fazilat edi. Bu esa ularning o'zini ham badiiy ijodga oshno bo'lishga sabab bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining boy va mazmunli ijodi bilan jahon adabiyoti hamda madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslardan biridir. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida temuriylar davri madaniyati alohida o'rin tutadi. U davrda ilm-fan va madaniyatning ko'plab jabhalari yuqori pog'onaga ko'tarildi. Aynan shu

Date: 25th June-2025

davrda Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy kabi ulug‘ olimlar, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy kabi mashhur tarixchilar, shuningdek, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy va Alisher Navoiy kabi ulug‘ shoirlar yetishib chiqqan.

Zahiriddin Muhammad Boburning og‘ir hayoti va faoliyati temuriylar saltanatining siyosiy, ijtimoiy va madaniy inqiroziga to‘g‘ri kelgan. Otasining vafotidan so‘ng, 12 yoshida Bobur Farg‘ona hokimiyatini boshqarishni boshladi. Shu paytda temuriylar saltanatining ko‘p qismi Shayboniyxon tasarrufiga o‘tgan edi. Bobur Movarounnahr feodal hokimlarining ichki nizolari natijasida parchalanib ketgan davlatni qayta tiklashni siyosiy maqsad sifatida belgiladi.

1495-1496 yillarda Bobur Samarqandni ishg‘ol qildi, biroq ukasi Jahongir Mirzo va tog‘asi Ali Do‘st tomonidan uyushtirilgan fitna tufayli Andijonni yo‘qotdi. Ikki yillik sarson-sargardonliklardan so‘ng ota yurtini qaytarib oldi. 1499-1500 yillarda Shayboniylar bilan janglarda mag‘lub bo‘lib, Toshkentga chekinishga majbur bo‘ldi va bir necha yil turli joylarda sargardon bo‘ldi.

1503-1504 yillarda Shayboniyxon Andijonni egallagach, Bobur Hirotga ketib kuch to‘pladi, keyinchalik Kobulni zabt etdi va 1507 yilda o‘zini podshoh deb e‘lon qildi. U o‘z yurtini qaytarish uchun Hindistonni bosib olish orqali yagona kuch hosil qilish zarurligini anglab yetdi. 1519 yildan boshlab Bobur Hindistonni zabt etishga kirishdi va 1526 yilda Sulton Ibrohim Lo‘diy ustidan g‘alaba qozonib, Boburiylar sulolasining Hindistondagi asoschisi bo‘ldi.

Bobur o‘z xalqining, ona Vatanining obro‘ va shon-shuhratini saqlash, kelajak avlodlar, xususan, farzandlarining munosib avlod bo‘lib yetishishi uchun jon fido qildi. Uning so‘zlariga ko‘ra, kelajak avlod sog‘lom va jasoratli bo‘lishi lozim edi. Bobur o‘g‘li Humoyunning sog‘ayishi uchun o‘z jonini berishga ham tayyor edi. Natijada Humoyun sog‘aydi, biroq 1530 yil 26 dekabrda vafot etdi. Bobur dastlab Jamna daryosi sohilidagi Nurafshon bog‘iga dafn etilgan bo‘lsa, 1533-yilda vasiyatiga binoan xoki Kobuldagi “Bog‘i Bobur”ga ko‘chirilgan.

Boburning asosiy maqsadlaridan biri yagona markazlashgan davlat qurish, mamlakatni obod etish va ezgu maqsadlarni amalga oshirish edi. Bu maqsad Hindistonda amalga oshdi. Uch asrdan ziyod davom etgan barqaror davlat tuzilmasining vujudga kelishi Bobur nomi bilan chambarchas bog‘liq.

Hindistonning buyuk davlat arbobi Javoharlal Neru Bobur haqida shunday deydi: “Bobur eng donishmand va dilbar shaxslardan biri edi. Unda mazhabiy taassub, qoloqlik va qisqa fikrlilik yo‘q edi. U boshqa hukmdorlar kabi vayronagarchilik yo‘lidan bormadi. Bobur san‘at va adabiyot homiysi bo‘lgan.”¹

Bobur vafotidan so‘ng Hindistonni to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyun Mirzo, so‘ng uning o‘g‘li Akbarshoh boshqarib, Hindistonni iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirdi. Akbarshohdan keyin Jahongir Mirzo va Shoh Jahon hukmronligi davrida ilm-fan, madaniyat yuksaldi, buyuk arxitektura asarlari barpo etildi. Bobur adabiyot, tarix, musiqa

¹ Rajabov N. Ma‘naviyat sarchashmalari. Fan – T.: 1999. B.64.



Date: 25th June-2025

va san'atga chuqur qiziqish bildirgan, diniy ta'limotni chin dildan hurmat qilgan. U olimu fozillar bilan doimiy aloqada bo'lib, ijodkorlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatgan. Hayoti davomida samarali ijod bilan shug'ullanib, qiyin sharoitlarda ham ijoddan to'xtamagan va boy ilmiy hamda adabiy meros qoldirgan. Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yozishni boshlagan. Uning mashhur g'azallaridan biri "Topmadim" radifli g'azal va "Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi" misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o'sha davr hayoti bilan chambarchas bog'liq. Hindiston yurishlari davrida Bobur "Mubayyin" asarini yaratgan. Masnaviy uslubda yozilgan bu asar islom huquqi va shariat aqidalari haqida bo'lib, 2258 baytdan iborat. Valiahdlar Humoyun va Komron Mirzoga dasturulamal sifatida mo'ljallangan "Mubayyin"da imon, namoz, ro'za, zakot va hajga oid shar'iy mezonlar bayon qilingan. Asarning sakkiz nusxasi mavjud bo'lib, ularning asosida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bobur Qur'oni karimga qat'iy amal qilgan, har qadamda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) sunnatlarini dasturulamal sifatida qabul qilgan shariatpanoh podshoh edi. Bobur qalamiga mansub "Xatti Boburiy" asari, shuningdek musiqa san'ati va harbiy ilmlarga bag'ishlangan bir qator risolalar mavjud bo'lgan. "Xatti Boburiy"da muallif arab yozuvini soddalashtirish maqsadida turkiy til va talaffuzga moslashtirishga harakat qilgan. Biroq boshqa asarlarning matnlari hozircha topilmagan.

Bobur shaxsiyati murakkab. Mohir jangchi, buyuk sarkardalik ishlari uning sovuqqonligidan darak bersa, she'riyati poetikasi hassos qalbini ko'rsatadi, din va shariatga hurmati esa nihoyatda taqvodor shaxs bo'lganini anglatadi. U nafaqat, islom dunyosida homiy, Hindistonni zabt etgach esa hind xalqiga ham cheksiz marhamat ko'rsatgan edi. Fikrimizning isboti sifatida hind davlat arboblarning ta'riflarini keltirish mumkin.

Qamar Rais, jamoat arbobi va adabiyotshunos

"Boburning hind xalqiga qilgan eng katta xizmati shuki – u xalqimizning ruhiy-ma'naviy olamini kengaytirib, ularni o'z kulbalaridan tashqariga qarashga, dunyoning naqadar katta ekanini anglashga majbur qildi. Bobur san'at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi", - deydi Qamar Rais. Jovohirlal Neru esa: "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati, ularga mashg'ulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi", - deydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov N. Ma'naviyat sarchashmalari. Fan – T.: 1999. B.64.
2. O'zbek adabiyoti. O'qituvchi. T.:1997. B.22.
3. Rajabov N. Ma'naviyat sarchashmalari. Fan – T.: 1999. B.66.
4. Rajabov N. Ma'naviyat sarchashmalari. Fan – T.: 1999. B.4.
5. Evadullayev T. Zahiriddin Muhammad Bobur – shariatpanoh hukmdor. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati. 2022,1-son.